

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA PEDAGOGIK
TA’LIM INNOVATSION KLASSTERINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**

(20-21 MAY)

1-QISM

CHIRCHIQ – 2022

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION
KLASTERINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI**

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ
ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ «ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО
ИННОВАЦИОННОГО КЛАСТЕРА»**

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE OF TASHKENT REGION

**MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE ON THE THEME OF "PROSPECTS FOR THE
DEVELOPMENT OF INNOVATIVE CLUSTER OF PEDAGOGICAL
EDUCATION IN NEW UZBEKISTAN"**

VOLUME 1

May 20.21, 2022

CHIRCHIK CITY

жамоавий турлари, масалан, рақслар, гимнастика, бадий гимнастикани эмас, балки бошқасини танлаш лозим бўлади; флегматик: катта сабр-бардошни талаб қиладиган спорт турларини танлаш мумкин, масалан, сузиш, чанғида юришлиги;

- Ёшлардаги дилкашлик даражаси (боланинг хулқ-атворида диққат-эътибор қаратиш лозим; у вақтини бошқа болалар орасида ўтказишни ёқтиради, бу ҳолда унга спортнинг жамоавий 14 турлари —баскетбол, волейбол, футболни таклиф қилинг, агар ёлғизликда қолишни афзал кўрса, бу ҳолда сузиш, гимнастика, теннис, велоспортни тавсия қилинганлиги);

- бола — бу ўринда маълум бир ёш чегараларидан ташқари, ҳар бир секцияда

машғулотларни бошлаши учун боланинг ривожланиш хусусиятларини ҳам ҳисобга олиш муҳим: лоақал 8 ёшгача энг муҳим мезон — боланинг коникиш ҳосил қилишидан иборат бўлиши зарур; 8дан 10 ёшгача — агар бола танлов асосида бир неча спорт турларни алмаштирса, бу меъёрида ҳисобланади; 11— 12 ёшда — мусобақаларга бўлган интилиш, айнан бу чинакам иқтидорни кўрсатиш учун яхши ёш саналади;

- Ёшнинг жисмоний маданият билан шуғулланишдан мақсад (маълум бир спорт секциясини танлаб олишга спортнинг тахминий мақсади ҳам таъсир кўрсатишилиги; саломатлик учун ёки ката ютуқларга эришиш учун, балки шунчаки фаолиятнинг ҳар тури бўлиши билан боғлиқлиги);

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ғаниева Ф.В. Баскетбол. Олий ўқув юртлари умумий курс талабаларига мўлжалланган ўқув-услубий қўлланма. ЎзДЖТИ нашриёт бўлими, 2009й.3 бет

2. И.А.Каримов – «Тинчлик ва хавфсизлигимиз, ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимизга ва қатъий иродамизга боғлиқ» 12-Т “Ўзбекистон” 2004.

3. Лубышева Л.И. Социальная роль спорта в развитии общества и социализации личности// lid sported чи, 2005.с.1.

YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASI MASALASI

Jo'rayev Sherali Maxmutovich
TVCHDPI Jismoniy madaniyat
kafedrasi o'qituvchisi

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlatimizning, jumladan barchamizning eng oliy maqsadlarimizdan biri hisoblanadi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masaladir. Ushbu dolzarb masala uzluksiz davom etadigan jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasidan iboratdir.

Bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qurolli Kuchlarning Umumharbiy Nizomlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq olib borilmoqda.

Mamlakatimizni 2017 — 2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Xususan, “2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”da “Vatanparvar” tashkiloti bazasida yoshlarni mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan kasblarga o'qitishda ko'mak berish mas'uliyati yuklatilgan. Shu bilan birgalikda ularning harbiy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borilishi ham aytilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son qaroriga binoan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi” ishlab chiqilgan bo'lib ushbu konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan.

Harakatlar strategiyasining uzviy davomi o'laroq, O'zbekistonning kelajagi bilan bevosita bog'liq bo'lgan eng muhim hujjat “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. Bu bilan, kelgusi yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O'zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan. Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida amalga oshiriladigan sa'y-harakatlar ham aniq. Ular, o'z navbatida, samaradorlik va natijadorlikni nazorat qilishni anchayin osonlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasiga muvofiq ravishda baholash tizimi joriy etildi. Barchamizga ayonki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi umumiy tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarda Vatanni fidokorona himoya qilishga tayyorlik va bunga qodirlikni shakllantirishga yo'naltirilgan. Uning ma'naviy-ma'rifiy va nazariy asosi Vatanni himoya qilish to'g'risidagi zamonaviy tegishli ilmfan sohalarining xulosalari, xalqimizning Vatan va uni himoya qilish haqidagi tarixiy va zamonaviy amaliy tajribasi, ilmiy merosi hamda mazkur masala bilan bog'liq umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy talablar hisoblanadi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining IV ustuvor yo'nalishida “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”ga qaratilgan bo'lib 70-maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” ishlarini amalga oshirish vazifalari berilgan. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida,

zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifa etib belgilangan.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining VII ustuvor yo'nalishida "Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish" masalalarida ham bir qancha vazifalar belgilangan bo'lib 90-maqсадida "Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish" sohasida ham vazifalar belgilangan. Bular:

- barcha bo'g'indagi hokimiyat organlari rahbarlarining qo'shinlar kundalik hayotida, harbiy shaharchalar barpo etish, ularning infratuzilmasini yaxshilash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda faol ishtirok etishini ta'minlash;

- harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etish, ularni ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish, Qurolli Kuchlarning barcha davlat idoralari, muassasa va korxonalar uchun yetuk kadrlar tayyorlaydigan maktabiga aylanishiga erishish;

- mamlakat harbiy xavfsizligini ta'minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish;

- Qurolli Kuchlar yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va raqamlashtirishni yanada takomillashtirish;

- Qurolli Kuchlarda yagona axborot-kommunikatsiya tizimini yaratish va axborot xavfsizligini ta'minlash;

- Mudofaa vazirligi qo'shinlarining jangovar shayligi va tayyorgarligi hamda o'quv moddiy-texnika bazasini yanada takomillashtirish;

- fuqarolarning harbiy xizmatni o'tash tartibini yanada takomillashtirish;

- oliy harbiy ta'lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish;

- Mudofaa vazirligi qo'shinlarida rahbar lavozimlariga kadrlar zahirasi yaratish tizimini rivojlantirish;

- Mudofaa vazirligi tizimida geraldika ishlarini samarali yo'lga qo'yish;

- qo'shinlarni zamonaviy qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnika hamda jihozlar bilan ta'minlash;

Ushbu ustuvor yo'nalishning 91-maqсадida Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish bo'yicha ham vazifalar belgilangan bo'lib, ular qo'yidagilardir:

Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga ko'rsatilayotgan tibbiy ta'minot sifatini yanada oshirish;

Qurolli Kuchlarda axloqiy-ruhiy ta'minotni va harbiy psixologlar institutini yanada takomillashtirish hamda harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash;

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish;

Mudofaa vazirligi harbiy qism va muassasalarida mavjud xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassislar ish faoliyati samaradorligini oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlanganidek, “Bugungi kunda bizning harbiylarimiz o'zlarining professional tayyorgarlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamoqda. Xalqaro harbiy o'quv musobaqalarida, armiyalar o'rtasidagi va sport bellashuvlarida O'zbekiston vakillari o'zlarining mahorati, ruhan baqquvvatligi, g'alabaga bo'lgan irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko'rsatmoqda. Hech shubhasiz, bularning barchasi butun O'zbekiston xalqida, ayniqsa, yoshlarimizda milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg'usini, Vatan himoyachisidek sharaflı kasbga hurmat-ehtirom hissini uyg'otmoqda”. Bu o'sib kelayotgan yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng asosiy omili bo'ladi deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'lib, bu Adolatli jamiyat barpo etishning, uchinchi renessans poydevorini yaratishning hamda Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining «Umum-harbiy Nizomlari», «Uzbekiston», Toshkent, 1996.
4. O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majuriyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni, 2003.
5. Jo'rayev Sh.M. (2020). Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor vazifalari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, VOLUME 1 | ISSUE 3), 1081-1086.
6. Sherali Jo'rayev (2021). Bugungi kun chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar. Xalq ta'limi, 101-104.

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ БАДИЙ-ЭСТЕТИК МЕРОС АСОСИДА МАЪНАВИЙ-ЭСТЕТИК РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИ

У.И.Зокирова, А.Қодирий номли Ж.Д.П.И ўқитувчиси.

Узлуксиз таълим тизимини ривожлантиришнинг янги стратегиясида таълим омили қайта кўриб чиқилмоқда, асосий эътибор маънавий-ахлоқий ва албатта, маънавий-эстетик тарбияга, шунингдек, ушбу таълимнинг ижодий-инновацион ёндашуви, тарбиянинг кадриятли-шахсий меъзонларига қаратилади. Шахсни тарбиялаш ва ривожлантиришда педагогика фани миллий-

МУНДАРИЖА:

I ШЎЪБА. ТАЪЛИМДА УЗВИЙЛИК ВА УЗЛУКСИЗЛИК: ИННОВАЦИЯ ВА ИНТЕГРАЦИЯ

Мухамедов Г.И. Педагогик таълим кластери: Чирчик тажрибаси	6
Ибраимов Х. И. Таълимда интеграция –интеллектуал тараққиёт омили сифатида	12
Сафарова Р. Г. Таълим-тарбия жараёнини маданиятшунослик ёндашуви асосида ташкил этиш инновацион педагогик ҳодиса сифатида	14
Эргашов С., Рахматулаева М.Д. Ландшафты крупных впадины и долин юга-западного тенир-тоо и его изменение (на примере ферганской впадины) .	17
Ыскак Бегман, Дарибаева М. Д. Значение общей учебной гибкости и навыков в развитии языка младших школьников	23
Мардонов Ш.Қ. Малакасини оширишда субъект-объект муносабатлари	26
Усаров Ж.Э. Педагогик таълим инновацион кластерининг педагогик асослари	31
Mardonov Sh.Q., Toshtemirova S.A.....Klaster tizimida “kasbga yo‘naltirish diagnostikasi”ni tashkil qilishning integrativ asoslari	35
Абдуллаева Ш.А. Развитие образовательных компетенций студентов на основе стриминговых технологий.....	40
Мўминова Л.Р., Аҳмедова З.М. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг ёзувни эгаллашда тасвирий фаолиятни ўрни ҳақида замонавий қарашлар	44
Qurbonov M., Sattorova D.Yu. Ta'lim jarayonini zamonaviy akt yordamida rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	48
Худойкулов Х. Ж. Инсоннинг маънавий қиёфаси ва мулоқот маданияти	50
Йўлчиева М. Мақомлар эволюцияси.....	56
Эркабоева Н. Ш. Бўлажак дефектологларда толерантликни ривожлантиришнинг назарий асослари	58
Халилова Ш. Т. Интеграция управления инновациями в систему образования	60
Divanova M.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda raqamli texnologiyalarning ayrim jihatlarini	64
Boboxo'jayeva L.G., Begzatova Sh.P., Tadjibayev I.U. Mustaqil ish - zamonaviy kasbiy ta'limning asosi.....	66
Абдуллаев А.А. Қадимий тарбия тизимида халқ ўйинлари шахсни шакллантириш воситаси сифатида.....	68
Абдувалиева Д. Н. Бўлажак ўқитувчиларнинг ижодий компетентлиги ва уни аниқлашнинг мезон ва даражалари	70
Абдиримова И. К. Таълим самарадорлигини оширишда лойиҳа фаолияти ва ўқувчи қобилиятининг уйғунлиги	74
Alimbayeva S. Maktabgacha ta'lim tashkilot rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish	77
Абдулхаликова Н.Р., Салямов Ю. Р., Фуркатов С. Ф.Инновационные методики в преподавании темы: «эквипотенциальные поверхности в электростатических и гравитационных полях» (обзор - исследование)	80

Жабборова О. М. Бадий таълим мазмуни ва унинг шахс ривожига аҳамияти	140
Жабборова О. М., Сулаймонова З. З. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини касб тайёргарлигини шакллантириш методикаси	143
Жабборова О. М., Саъдуллаева Г. А. Бошланғич таълимда тарбиявий ишларни ташкил этишнинг назарий асослари.....	144
Жабборова О. М., Мардиева Г. Ў. Бошланғич синф ўқувчиларини толерантлик руҳида тарбиялаш муаммоси	148
Жабборова О.М., Сайлиева М.М. Талабаларни таълим жараёнида янги миллий ғоя асосида тарбиялашнинг педагогик шарт-шароитлари.....	150
Жўрахўжаев М.Х. Имконияти чекланган болалар уйда якка тартибдаги таълимни ташкил этишнинг самарали омиллари	153
Жумаев А. Т., Эрматов Ж. А. Ёшлар – ўсмирларга мувофиқ тавсия этиладиган жисмий маданият турлари.....	157
Jo'rayev Sh. M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi masalasi	158
Зокирова У. Бўлажак ўқитувчиларни бадий-эстетик мерос асосида маънавий-эстетик ривожлантириш жараёни	161
Исмоилова Д. М., Акмалова К., Шарофиддинова Д. Тарбия иши педагоги фаолиятида рух контексти.....	166
Кадырова Х.Н. Современные инновационные технологии в образовании и их применение	168
Кенжаев А. Л. Рус шеърляри кумуш асри вакили анна ахматованинг шеърлярига муносабати хусусида.....	172
Kamolova M. Ta'limda uzviylik va uzluksizlik: innovatsiya va integratsiya	176
Кадырова С. Об управлении общеобразовательной школой	178
Курбанов Х. Х. Менеджмент разных форм образования основанной на основе принципа образование в течение всей жизни относительно мско.....	181
Кубаев А. С. Таълим муассасалари раҳбарлари томонидан коммуникатив фаолиятнинг самарали ташкил этиш мазмуни.....	183
Каримжонов А., Каримжонova Д.А. Бошланғич ва мактабгача таълим ташкилотлари педагогларини педагогик фанларни чуқурлаштирилган ҳолда ўқитиш механизмини такомиллаштириш.....	187
Лутфуллаев А. Умумий ўрта таълим мактабларида халқ чолғулари ижрочилигини ўргатиш зарурияти	190
Mahkamova Sh. R., Shokirjonova N. Sh. Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni.....	194
Мирзаева Н. А., Гуломова М. А. Ўзбекистон замонавий мактабларнинг ривожига STEAM таълимнинг инновацион зарурияти	199
Мардонов Ш. Қ., Маматова А.М. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда ахлоқий фазилатларни шакллантириш тизими	201
Маматқосимова Н. Бўлажак маданият ходимларининг умуммаданий компетенцияларини ривожлантиришда мутолаа маданияти масалалари	205
Маматқосимов Ж. Бўлажак режиссёрларнинг касбий компетенцияларини такомиллаштиришда станиславский системаси фундаментал услуб сифатида.....	208